



ARTICLE INFO

Received: 26th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Preschool age, creative activity, manual labor, non-traditional technologies, fine motor skills, aesthetic education, creativity, pedagogical methodology, practical training, child development.

DEVELOPING THE CREATIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH MANUAL LABOR

Turdaliyeva Nurjahon Abdunasir qizi

Kokand University

Teacher, Department of Education

E-mail: nurjahonturdaliyeva3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592405>

ABSTRACT

This scientific article comprehensively analyzes the role and influence of manual labor in the formation and development of creative activity of preschool children. The preschool period is one of the most important stages for the development of children's creative potential, independent thinking, the development of new approaches and the ability to find solutions to problem situations. Manual labor activities during this period have a complex impact on the psychophysiological, emotional, aesthetic and social development of the child.

QO'L MEHNATI JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi

Qo'qon Universiteti

Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

E-mail: nurjahonturdaliyeva3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592405>

ARTICLE INFO

Received: 26th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Maktabgacha yosh, ijodiy faollik, qo'l mehnati, noan'anaviy texnologiyalar, mayda motorika, estetik tarbiya, ijodkorlik, pedagogik metodika, amaliy mashg'ulot, bola rivojlanishi.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish va rivojlantirishda qo'l mehnatining o'rni va ta'siri har tomonlama tahlil qilingan. Maktabgacha ta'lim davri – bu bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, mustaqil fikrlash, yangicha yondashuvlar va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda qo'l mehnati faoliyati bolaning psixofiziologik, emotsional, estetik va ijtimoiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonunlarini o'rganuvchi psixologiya fani va uning sohalari alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda muhimdir.

Maqolaning dolzarbligi: Hozirgi davr talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsada, lekin aqliy kamolotga yetishish asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo'riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoiylilik namunalari evaziga bosqichma bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmonining IV **bo'limida Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda 37-45-maqсадlarda aynan ta'lim tizimi, umumiy o'rta ta'lim maktabi va maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim-tarbiya berish haqida maqsadlar belgilangan.**¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.²

Markaziy Osiyoda estetik taraqqiyot bir qancha bosqichlarda kechgan. Bu bosqichlarning har birida san'atning muayyan turida o'sish, rivojlanish kuzatilgan. Ularning har biri har bir davr kishilarining estetik ongini oshirishga xizmat qilgan. Qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar Markaziy Osiyo hududida shakllangan estetik g'oyalarning negizida inson go'zalligi, uning shakllanishi axloqiy tamoyillar asosiga qurilgan. Asrlar davomida taraqqiy etgan o'zbek xalq amaliy san'ati ham katta estetik imkoniyatga ega bo'lib, nafaqat kishilar turmushini chiroyli, ko'rkam bo'lishini ta'minlagan, balki shaxsning estetik didini rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Bu esa shaxsning ijodkorligi va ijodiy qobiliyati rivojlanganligidan dalolat beradi. Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Tasavvur va xayol odamlarga munosabatlarda ham, ishda ham yordam beradi, lekin eng muhimi, ijodiy odamlar o'zlarining individualligini ifoda eta oladilar, bu esa har qanday jarayonda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Ijodiy faoliyat bolalik davridagi eng samarali faoliyatlardan biri hisoblanadi. Bolaligimizda hammamiz rasm chizganmiz, haykaltaroshlik qildik, qo'shiq aytdik, raqsga

¹ <https://lex.uz/docs/5841063>

² <https://lex.uz/docs/4333062>



tushdik. Bu harakatlar hayotiy ahamiyatga ega, inson doimo yaratadi, faqat yoshi o'tishi bilan ko'pchilikda bunga ehtiyoj yo'qoladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum bir yoshga qadar bolaning deyarli barcha faoliyatini ijodiy, konstruktiv deb atash mumkin.

Kundalik hayotda ijodiy qobiliyatlarning asosiy rivojlanishi o'yin orqali sodir bo'ladi. O'yinda bolalar asosan o'zlarining moyilliklarini ko'rsatadilar, ularning sevimli o'yinlariga ko'ra, qaysi faoliyat sohasi bola uchun eng qiziqarli ekanligini aniqlash mumkin. Qaysidir ma'noda, o'yin bolalar ijodiyotining namoyon bo'lishi uchun tuproq, ozuqaviy yechimdir. Aniq qoidalar bilan shartlanmagan bolalar o'yinlarida bolalarning tasavvurlari eng to'liq namoyon bo'ladi. Bolalar o'yinlari mohiyatan san'at va inson faoliyatining turli turlarining boshlanishi - o'yin orqali bola dunyoni o'rganadi va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiladi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faolligini oshirish, ularni ijodkor, kreativ va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashning yangi innovatsion metod va usullarini ishlab chiqish maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Bu borada insonning mantiqiy fikrlash jarayoni, ijodiy tafakkur jarayonlarini tarkib toptirish, iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar bilan asosida taxsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishlari uchun ijodiy qobiliyat sifatlarini shakllantirishda butun mas'uliyat MTT tarbiyachisining zimmasiga tushadi. Shu sababli biz yakuniy loyiha ishida maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faolligini rivojlantirishda qo'l mehnati jarayonining alohida ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, "Qo'l mehnati jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faolligini rivojlantirish" deb tanladik

Maqolaning maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati jarayonida ijodiy faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganish, shu orqali ularning motorika, ijodiy tafakkur, estetik didi va emotsional holatini shakllantirishda qo'l mehnatining rolini ko'rsatishdir.

Maqolaning ishining vazifasi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda qo'l mehnatining rolini tahlil qilish.
- bolalar ijodiy tafakkurini va estetik didini rivojlantirishda qo'l mehnatining ahamiyatini o'rganish.
- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tasviriy san'at, musiqa, hunarmandchilik va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali ko'nikmalarni shakllantirish usullarini aniqlash.
- ijodiy faoliyat jarayonida bolalar uchun samarali mashg'ulotlar va ko'rgazmalarni tashkil etish metodlarini ishlab chiqish.
- bolalar psixologiyasiga mos ravishda emotsional holatni qo'llab-quvvatlash va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish usullarini belgilash.
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlarni tavsiya etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda qo'l mehnati faoliyatining o'rni pedagogik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mavjud.

M.H.Usmonboyeva tomonidan "ijod" tushunchasi shunday ta'riflanadi:



ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi. Darhaqiqat, ijod bir vaqtning o'zida ham faoliyat ham faoliyat natijasi (ijodiy mahsulot) sifatida namoyon bo'ladi³.

E.P.Torrens ijodkorlikni "tartiblikdan tashqariga chiqish" deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi. Muallif bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning to'rtta afzalligini ko'rsatib o'tadi. Ular:

1. Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.
2. Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.
3. Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.
4. Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.

"Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotchan va turli vaziyatlarga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda bolalarda kretivlik masalasi o'rganilmagani dolzarb masalalardan biridir"⁴.

D.X. Rasulovning ilmiy tadqiqotida esa bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda mashg'ulot mazmuni, vositalar tanlovi va tarbiyachining metodik yondashuvi asosiy omillar sifatida ta'riflangan.

Xorijiy tajribaga murojaat qilar ekanmiz, M. Montessori tizimida bolalarning mustaqil ish yuritishi, qulay muhit va tayyor materiallar bilan ishlashi orqali ularning ijodiy qobiliyati rivojlantiriladi. Montessori faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surgan bo'lib, bola atrofidagi olamni o'rganish orqali o'zini anglaydi va ijodiy tafakkurini namoyon etadi.⁵

Amerikalik pedagog J. Dyui ta'lim jarayonini hayot bilan bog'lash, faoliyatni bola rivojining asosiy omiliga aylantirish g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, bola real muammolarni amaliy faoliyatda yechishga harakat qilganida ijodiy faollik eng samarali tarzda shakllanadi.⁶

Zamonaviy manbalarda esa STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi doirasida qo'l mehnati faoliyati fanlararo integratsiya vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, san'at va texnologiyalar uyg'unligi bolalarning dizaynerlik tafakkurini rivojlantiradi

Yana bir muhim jihat shundaki, qo'l mehnati faoliyati orqali bolalarning muloqot ko'nikmalari, hamkorlikdagi ishga tayyorligi va ijtimoiy-emotsional rivoji ham shakllanadi. Bu holat bolalarning kelgusidagi ijtimoiylashuvi uchun muhim tayyorgarlik bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan davlat o'quv dasturlarida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun qo'l mehnati mashg'ulotlari alohida o'rin egallaydi. Bu esa mavzuning amaliy dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi

METODOLOGIYASI

Maktabgacha yosh intensiv psixologik yetuklik bosqichi bo'lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr. Aynan shu davrda ko'p sohalarida progressiv o'zgarishlar ro'y beradi,

³ Креатив педагогика / Ўқув-методик мажмуа. Тузувчи: Н.Муслимов, М.Усмонбоева, А.Бўриев. – Т.: ЎТМ ПКҚТМОТМ, 2016. – 6-б.

⁴ Мирзакаримова А.Н. Мактабгача ёшдаги болаларда креативлик хусусиятларини ривожлантириш // Мактабгача таълим ж. / Ж. Дошкольное образование. – Т.: 2019. № 5 (78). – 76-б.

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Montessori_education

⁶ <https://muhaaz.org/?abuse=1>



aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) takomillashadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi, ular asosida qobiliyat, moyillik shakllanadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini ijodkor shaxs bo'lib voyaga etishini xohlaydi. Shu sababli yoshlikdanoq ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratadi. Binobarin, barcha bolalar istisnosiz potentsial ijodkorlardir. Badiiy ijodkorlik va tasviriy san'atni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar har bir bolada yashiringan ijodiy qobiliyatlarni "uyg'otish"ga, ijodiy layoqatni ro'yobga chiqarishga yordam berishga harakat qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar – rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalari bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'l mehnati jarayonida ijodiy faol bo'lishga yo'naltirishga doir ilmiy-nazariy asoslar, metodik yondashuvlar va amaliy tajribalarga tayangan holda ilmiy metodlar tanlandi.

Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari sifatida tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda kompetensiyaviy yondashuvlar asos qilib olindi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

Tahlil bosqichi – mavzuga oid adabiyotlar, mavjud metodikalar, davlat dasturlari va ilg'or tajribalar o'rganildi;

Diagnostic bosqich – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faollik darajasi, qiziqishlari va mehnat faoliyatiga munosabati aniqlandi;

Tajriba-sinov bosqichi – ijodiy mashg'ulotlar loyihalashtirildi va amaliyotga joriy qilindi;

Natijalarni tahlil qilish bosqichi – tajriba natijalari tahlil qilindi, ilgari surilgan g'oya va metodik yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda qo'llangan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishida quyidagi asosiy ilmiy-pedagogik metodlar qo'llanildi:

Kuzatuv

Kuzatuv metodi tadqiqotda asosiy empirik usul sifatida qo'llanildi. Bu usul orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati mashg'ulotlarida ishtiroki, ularning faoliyatga bo'lgan munosabati, ijodiy yondashuv darajasi, mustaqil qaror qabul qilish layoqati bevosita o'rganildi. Kuzatuvlar tashkil etilgan maxsus mashg'ulotlarda va kundalik pedagogik jarayonda olib borildi. Jarayonda bolaning:

- qiziqishi va tashabbuskorligi,
- mustaqil ishlay olish qobiliyati,
- ijodiy yondashuvi,
- ishga bo'lgan munosabati kabi mezonlar bo'yicha tahlil qilindi.

Amaliy tajriba (eksperiment)



Tadqiqotda pedagogik eksperiment asosiy ilmiy-uslubiy vosita bo'ldi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Dastlabki (diagnostik) bosqich – bolalarning dastlabki ijodiy faolligi darajasi o'rganildi;

Tajriba-sinov bosqichi – maxsus mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar, loyiha asosidagi faoliyatlar orqali bolalarning ijodiy salohiyatini oshirish bo'yicha ishlar olib borildi.

Nazorat bosqichi – bolalarning tajriba natijasida ijodiy yondashuvi va tashabbuskorlik darajasida qanday o'zgarishlar yuz bergani tahlil qilindi.

Eksperiment davomida nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirildi. Tajriba guruhida innovatsion metodik yondashuvlar asosida mashg'ulotlar tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy usullar qo'llanildi. Taqqoslov asosida samaradorlik darajasi aniqlandi.

Kontent tahlil (materiallar va mashg'ulotlar mazmunini tahlil qilish)

Ushbu metod orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilayotgan mashg'ulot rejasi, metodik qo'llanmalar, "Ilk qadam" dasturining mehnat ta'limiga oid qismlari, bolalar mehnatiga doir o'quv-uslubiy materiallar tahlil qilindi. Shuningdek, mashg'ulot jarayonida foydalaniladigan vizual vositalar, didaktik materiallar, mehnat faoliyatiga oid topshiriqlar mazmuni ijodiylikni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholandi.


Bu tahlillar asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turlari ajratib olindi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'l mehnati jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirishning dolzarbligi shundaki, jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyat insondan o'ziga xos va innovatsion g'oyalarni, bir xil qolipdagi, odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, yangi sharoitlarga tez yo'naltirilganligini va moslashishini, muammo yoki masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi.


Ijodiy faoliyat bolaning shaxsiyatini rivojlantiradi, unga odob va axloqiy me'yorlarni o'rganishga yordam beradi. Ijodiy asarlar yaratib, bola ularda hayotiy qadriyatlarni, shaxsiy xususiyatlarini tushunishini aks ettiradi. Shuning uchun ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishni maktabgacha yoshdan boshlash muhimdir. Maktabgacha ta'limning davlat talablari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy rivojlanish jarayonida bola asta-sekin mustaqil yashash va ijtimoiy faoliyat qobiliyati sifatida mustaqillikka ega bo'lib, nafaqat atrof-muhit bilan munosabatlarini saqlab qolish, balki yangi yagona ta'limni yaratish qobiliyati sifatida ham namoyon bo'ladi. **Kuzatuv metodi**

Kuzatuv metodi orqali bolalarning faoliyati va rivojlanishi tahlil qilindi. Tajriba oldi bosqichida ijodiy faollik darajasi 52% bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 70% ga ko'tarildi. Ushbu metod bolalarning kundalik faoliyatida ularning ijodiy ifoda imkoniyatlarini aniqlashda samarali bo'ldi.




Amaliy Tajriba (Eksperiment) Metodi Bo'yicha Tahlil

Amaliy tajriba davomida bolalarga maxsus topshiriqlar va mashg'ulotlar berildi. Tajriba boshlanishida faollik 50% atrofida bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida 78% ga yetdi. Eksperiment natijalari bolalarning ijodiy ifoda qilish, mustaqil fikrlash va o'z g'oyalarini ilgari surish darajalarini oshirishga xizmat qildi.




Kontent tahlil metodi bo'yicha tahlil

Mashg'ulot materiallari va bolalar tomonidan yaratilgan ishlar tahlil qilindi. Tajriba boshlanishida ijodiy yondashuv mavjudligi 45% bo'lgan bo'lsa, tajriba so'nggida bu ko'rsatkich 69% ga yetdi. Bu metod mashg'ulotlar mazmunini chuqur o'rganish



Metodik Tadqiqot Natijalari Umumlashtirilgan Diagramma

Quyidagi diagrammada barcha metodlar bo'yicha tajriba oldi va keyingi natijalar umumlashtirilgan holatda ko'rsatilgan:



MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'l mehnati faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Kuzatuv, suhbat va so'rovnoma, eksperiment hamda kontent tahlil metodlari asosida olingan ma'lumotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlari tajriba davomida sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatdi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, tajriba oldi bosqichida bolalarning faolligi past bo'lib, ular mustaqil qaror qabul qilishda, g'oyalar ilgari surishda va yangi shakl, tasvir, materiallardan foydalanishda sust bo'lgan. Biroq, qo'l mehnati mashg'ulotlarida tizimli yondashuv orqali ular



tashabbuskorlik ko'rsatishni, ijodiy fikrlashni va amaliy ifoda vositalaridan foydalanishni o'rgandilar. Tajriba so'ngida kuzatuv natijalarida 18 foizlik o'sish qayd etildi.

Suhbat va so'rovnoma natijalari esa ota-onalar va tarbiyachilarning fikrlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatdi. Jumladan, tajriba oldi bosqichida ota-onalarning 50% bolalarda ijodkorlik yuqori emas deb baholagan bo'lsa, tajriba so'ngida bu ko'rsatkich 75% ga yetdi. Tarbiyachilar esa bolalarning faolligi va mashg'ulotlarga qiziqishi ortganini qayd etdilar.

Amaliy tajriba – eksperiment metodikasi orqali bolalarning qo'l mehnati darslaridagi ishtiroki va ijodiy yondashuvi har bir bosqichda baholandi. Nazorat guruhi va tajriba guruhi o'rtasidagi farq, ayniqsa, ijodiy ishlar soni va sifatida yaqqol namoyon bo'ldi. Tajriba guruhi bolalarining 80% dan ortig'i mustaqil ijodiy ishlar bajara olishgan.

Kontent tahlil metodi yordamida qo'llanilgan mashg'ulot materiallari va ishlanmalarning tahlili natijasida bolalarga mos, qiziqarli, ularning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan topshiriqlar ijodiy faoliyatga samarali ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

XULOSA

Tadqiqot davomida qo'l mehnati jarayonining maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlandi. Bolalar uchun qo'l mehnatining noan'anaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar nafaqat ularning mayda motorikasini yaxshilashga, balki estetik va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham katta yordam berdi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar o'z qo'llari bilan turli shakl va rasmlar yaratishda, yangi g'oyalar ishlab chiqishda va o'z fikrlarini mustaqil ifodalashda yanada erkinroq bo'ldilar.

Qo'l mehnati faoliyatining bolalar uchun ta'siri ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

1.Ijodiy faollikning oshishi: Bolalar, turli materiallar va texnikalar yordamida o'z tasavvurlarini amalga oshirishda ko'proq ishtirok etib, yangi g'oyalar va yechimlarni yaratishda erkinlikka ega bo'ldilar.

2.Emotsional va estetik rivojlanish: Bolalar o'z yaratuvchanliklarini ifodalash orqali estetik didini shakllantirishga, shu bilan birga, emotsional jihatdan yanada rivojlanishga erishdilar.

3.Qo'l mehnatining noan'anaviy texnikalari bolaning barmoq va qo'l mushaklarini ishlatish, ularning koordinatsiyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'l mehnati faoliyatida innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarning qo'llanilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini oshirishda samarali usul bo'lib, ular turli shakl va materiallarni birlashtirish orqali o'z fikrlarini yaratishga, ko'rsatishga va ifodalashga qodir bo'ldilar.

Shu bilan birga, qo'l mehnati jarayonida bolalar o'zlariga bo'lgan ishonchni orttirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va turli xil yangi usullarni o'zlashtirishda muhim o'rin tutdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar uchun muntazam ravishda bunday faoliyatlarni tashkil etish, ularning ijodiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir.

TAKLIFLAR

"Qo'l mehnati jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faolligini rivojlantirish" mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quydagi takliflar taqdim etildi:

-noan'anaviy texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish



Tadqiqot natijalariga asoslanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'l mehnati jarayonida noan'anaviy texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish zarur. Xususan, bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun tabiiy materiallar (qamish, yog'och, tosh, plastilin) va turli xil materiallarni birlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish samarali natijalar beradi. Bu texnologiyalar bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi va turli shakllarda ijodiy ifodalanishga imkon yaratadi.

-pedagoglar uchun maxsus treninglar o'tkazish

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun qo'l mehnati va ijodiy faollikni rivojlantirishga doir maxsus treninglar tashkil etish zarur. Treninglar davomida pedagoglar innovatsion yondashuvlar, metodologiya va amaliyotlar haqida bilib olishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, bolalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim jarayonlarini tashkil etishda yordam beradi.

-ijodiy jarayonni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish

Har bir maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning ijodiy faolligini oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratishi kerak. Bunda, maxsus ishlab chiqilgan o'quv materiallari, badiiy vositalar va interaktiv o'quv joylaridan foydalanish muhimdir. Bolalar o'z ijodiy faoliyatlarini amalga oshirishda erkinlikka ega bo'lishlari va turli materiallar bilan ishlash imkoniyatini topishlari kerak.

-rivojlanish dasturlarini yaratish va joriy etish

Qo'l mehnatiga asoslangan ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan alohida dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Ushbu dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va motorik ko'nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Dasturlar bolalarga qiziqarli va foydali faoliyatlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

-ota-onalarni jalb qilish

Bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish jarayonida ota-onalarni ham faol ishtirokini ta'minlash muhimdir. Ota-onalar bilan birgalikda qo'l mehnati faoliyatlarini uyda ham o'tkazish mumkin, bu bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvur qilishni yanada oshiradi. Shuningdek, ota-onalarga bunday faoliyatlarining bolalar uchun foydaliligini tushuntiruvchi ma'ruzalar va seminarlar tashkil etish kerak.

-bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini ifodalashga urg'u berish

Qo'l mehnati jarayonida bolalar o'z ijodiy faoliyatini mustaqil ravishda rivojlantirishlari uchun erkinlik yaratish kerak. Bu bolalarda o'z fikrlarini va g'oyalarini ifodalashda ishonchni oshiradi. Har bir bola o'ziga xos ijodiy yondashuvni topishi va uni amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratish zarur.

References:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 54 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil, 23 sentabr)
3. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 2017 yil 9 sentyabr
4. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlis Senati va deputatlariga Murojaatnomasi
6. Qodirova F.R., Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika /darslik.– T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 208-211-b.
7. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi / O'quv qo'll. Muharrir H.Yusupova. —T.: Musiqqa, 2012. – 50-51-b.
8. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. – 167-180-b.
9. Usmonov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jaeva G. O'zbekiston tarixi /Kasb-hunar kollejlari uchun mashg'ulotlik. – T.: "O'qituvchi", 20014. – 23-b.
10. <https://lex.uz/docs/5841063>
11. <https://lex.uz/docs/4333062>
12. 12 Shoumarova G.T. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2018.
13. Davletov M.Q. Pedagogik texnologiyalar va ijodiy ta'lim. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
14. Rasulova D.X. Qo'l mehnati mashg'ulotlari orqali estetik tarbiyani rivojlantirish. – Toshkent: TDPU nashri, 2020.
15. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books, 1964
16. Turdaliyeva, N. (2025). DIFFERENT TYPES OF MANUAL LABOR FOR CHILDREN AND THEIR IMPACT ON CREATIVE DEVELOPMENT. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(1), 563-568..
17. Orinova, F., & Turdaliyeva, N. (2025). DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH HANDICRAFT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1610-1616.
18. Dewey J. Experience and Education. – New York: Kappa Delta Pi, 1938.
19. Novak M., Králová Z. Creativity in early childhood education through STEAM activities. // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2021.
20. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – *Journal of Russian and East European Psychology*, 2004.
21. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi". – Toshkent: Maktabgacha ta'lim agentligi, 2023
22. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDAPEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1),788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
23. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNINGO'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
24. N.A. Abduraxmonova (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARNING ROLI. *Inter education & global study*, (1 (1)), 15-21.
25. <https://uzresearchers.com/index.php/ijsr/article/view/3790/3877>